

VIKTIM XULQ-ATVOR JINOYATCHILIKNING SABABI SIFATIDA

Raximov Nodirbek Mutalliyevich
Namangan Davlat Universiteti
Yuridik fakulteti o'qituvchisi
To'xtasinov Jasurbek Bahramjon o'gli
Namangan Davlat Unversiteti
Yuridik fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda viktim xulq-atvorning jinoyatchilikka ta'siri masalasi tahlil qilinadi. Unda jabrlanuvchining o'z xatti-harakatlari, ehtiyotsizligi yoki provokatsion xulqi ayrim hollarda jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkinligi asoslab beriladi. Shuningdek, viktimologiya nuqtai nazaridan jinoyatchilikning oldini olishda nafaqat jinoyatchi shaxsini, balki potensial jabrlanuvchilarning xulq-atvorini ham o'rganish muhimligi ta'kidlanadi. Ishda viktim xulq-atvorning turlari, ularning jinoyat sodir etilishidagi o'rni hamda profilaktika choralarining samaradorligi yoritilgan. Natijada, jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Viktim xulq-atvor, viktimologiya, jinoyatchilik sabablari, jabrlanuvchi shaxsi, kriminologiya, provokatsion xulq-atvor, ehtiyotsizlik, huquqiy savodsizlik, ijtimoiy xavf, jinoyat omillari, passiv va faol viktimlik, viktimologik profilaktika, shaxsiy xavfsizlik, jinoyatning oldini olish, ijtimoiy muhit ta'siri.

ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВЫ КАК ПРИЧИНА ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация: В данной работе анализируется влияние поведения жертвы на преступность. Утверждается, что собственные действия жертвы, её неосторожность или провокационное поведение в некоторых случаях могут создавать условия для совершения преступления. Также подчеркивается важность изучения не только личности преступника, но и поведения потенциальных жертв в предотвращении преступлений с точки зрения

виктимологии. В работе рассматриваются типы поведения жертв, их роль в совершении преступлений и эффективность профилактических мер. В результате делается вывод о необходимости комплексного подхода для обеспечения безопасности в обществе.

Ключевые слова: Поведение жертвы, виктимология, причины преступлений, идентичность жертвы, криминология, провокационное поведение, безрассудство, юридическая неграмотность, социальный риск, факторы преступности, пассивная и активная виктимизация, виктимологическая профилактика, личная безопасность, профилактика преступности, влияние социальной среды.

VICTIM BEHAVIOR AS A CAUSE OF CRIME

Rakhimov Nodirbek Mutalliyevich

Lecturer, Faculty of Law, Namangan State University

Tokhtasinov Jasurbek Bahramjon oqli

2nd year student, Faculty of Law, Namangan State

University

Annotation: This work analyzes the impact of victim behavior on crime. It argues that the victim's own actions, carelessness, or provocative behavior can in some cases create the conditions for committing a crime. It also emphasizes the importance of studying not only the personality of the perpetrator, but also the behavior of potential victims in preventing crime from the perspective of victimology. The work highlights the types of victim behavior, their role in committing a crime, and the effectiveness of preventive measures. As a result, it is concluded that an integrated approach is necessary to ensure security in society.

Keywords: Victim behavior, victimology, causes of crime, victim identity, criminology, provocative behavior, recklessness, legal illiteracy, social risk, factors

of crime, passive and active victimization, victimological prevention, personal safety, crime prevention, influence of the social environment.

Jinoyatchilikning mazmuni hamda namoyon bo'lish shakllari, uning qonuniyatlari, asosiy va ikkinchi darajali harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini, shuningdek jinoyatchi shaxsi, uning tarkibiy va funksional xususiyatlarini bilish birdan-bir maqsad emas. U pirovard natijada hozirgi bosqichda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish borasidagi muhim amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan. Kriminologiya fani oldida nafaqat jinoyatchilikning ayrim muammolari, uning hozirgi bosqichdagi ba'zi bir sabablari, profilaktika subyektlari tizimi, ularning vazifalari hamda ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlariga doir nuqtayi nazarlarni yangilash va asoslash kabi metodologik xususiyatga ega bo'lgan muhim vazifalar yuzaga kelmoqda, balki o'tish davri iqtisodiyoti sohasidagi g'ayriijtimoiy hodisalarning turli omillarini aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarurati ham tug'ilmoqda. Havo, suv, o'rmon va yer resurslari; o'simlik va hayvonot dunyosi; aholining sog'lig'i va yashash qobiliyatini saqlash sohalarida ekologik jinoyatchilik sabablari hamda uning oldini olishning kriminologik tahlili muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Sobiq SSSRning parchalanishi va uning hududida yangi mustaqil suveren davlatlarning tashkil topishi endilikda yaqin, o'rta va uzoq xorij davlatlari doirasida xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa, narkobiznes, fohishalik, g'ayriqonuniy valyuta operatsiyalari, madaniy va ma'naviy boyliklarni o'g'irlash, xalqaro terrorizm, diniy aqidaparastlik va hokazolarga qarshi kurashda hamkorlik qilishga nisbatan boshqacha yondashuvni taqozo etmoqda. Ayni vaqtda, korrupsiya, uyushgan, shu jumladan professional jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari ham tobora muhimroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Kompyuter texnikasi, reklama ishi sohasidagi jinoyatlar, yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi hamda ichkilikbozlik negizidagi jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalari ham mustaqil rol o'ynamoqda. Milliy kriminologiyamizda yana bir g'ayriijtimoiy hodisa – narkojinoyatchilik uzil-kesil qaror topdi. Bu hodisaga qarshi kurashning muhimligini tasavvur qilish uchun ikki omilni ko'rsatib o'tish kifoya deb

o'ylaymiz. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishlar umumiy tarkibida narkojinoyatchilik taxminan 15 foizni tashkil etadi. Holbuki, giyohvandlik hamda giyohvandlik moddalari bilan g'ayriqonuniy muomalada bo'lish o'ta yashirin jinoyatlar qatoriga kiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda narkojinoyatchilikning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda¹.

Shaxsning alohida ijtimoiy tipini ajratish uchun asos bo'ladigan shaxsiy xususiyatlar mavjudligi to'g'risidagi masala qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, jinoyatchi shaxs sifatida boshqa odamlardan ajralib turadi, ayrim mualliflar esa asosan jinoyat sodir etish paytida shaxsning shart-sharoit bilan o'zaro ta'siriga ishora qiladi. Umuman olganda, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh bilan bog'lanadi, bu tiplarga ajratishga nisbatan metodologik yondashuvning negizi. Jinoyat sodir etuvchi voyaga yetmagan shaxsning tipini aniqlashda ayrim metodologik va metodik qoidalarni e'tiborga olish lozim.

Birinchidan, tipning ijtimoiy tabiati to'g'risida so'z yuritiladi, shu bois aynan insonning "shaxsi, ijtimoiy qiyofasi" o'rganiladi.

Ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan shaxs tipi u o'ziga xos bo'lgan odamlarning barqaror ijtimoiy belgilangan xususiyatlarining mavjudligini ifodalagan taqdirdagina ahamiyat kasb etadi. Bu xususiyatlar jinoiy xulq-atvor fakti bilan emas, balki uning imkoniyati bilan belgilanadi. Mazkur imkoniyat faqat muhit bilan o'zaro aloqada yuzaga chiqadi. Binobarin, kriminogen shaxs tushunchasi boshqa shaxs tiplari bilan taqqoslanganda tegishli shart-sharoitda jinoiy xulq-atvor yuz berish ehtimoli katta bo'lgan muayyan ijtimoiy tipni ifodalashi mumkin. Bunday ehtimol faqat ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishish natijasida ro'yobga chiqadi va shundan keyin, ya'ni jinoyat sodir etilganidan so'nggina kriminogen shaxsning ijtimoiy tipini ifodalovchi shaxs jinoyatchiga aylanadi.

¹. Kriminologiya darslik. Abdurasulova. Q.R. Toshkent. 2008

Uchinchidan, aynan tip nazarda tutiladi, shu bois jinoyat sodir etuvchi shaxslarda kriminogen shaxs tipining jihatlari har xii darajada mujassamlashishi mumkin.

To'rtinchidan, jinoiy xulq-atvor bilan bevosita bog'liqbo'lgan xususiyatlar to'g'risida so'z yuritilishi lozim. Kriminogen shaxsning jinoyatchi bo'lmagan shaxsdan farqi aynan jinoiy xulq-atvor bilan bog'liq.

Beshinchidan, voyaga yetmagan kriminogen shaxs o'ziga xos kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar majmuini o'zida mujassamlashtirgan alohida hodisa.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar jinoyatchilarning turli toifalari orasida uchraydigan kriminogen voyaga yetmagan shaxs tipi quyidagi o'ziga xos jihatlari majmui bilan ajralib turishini ko'rsatdiki, faol g'ayrihuquqiy va axloqiy ta'sir sharoitida shaxsning shakllanishi, oilada g'ayrihuquqiy xulq-atvor va xatti harakatlarning kuzatilishi va hatto jamiyat va davlat muhiti hamda uning qadriyat va me'yorlar tizimi tomonidan ta'sir o'tkazish choralari ko'rilganidan keyin ham har xii axloqqa zid va g'ayrihuquqiy qilmishlar tizimining mavjudligi, jinoyat sodir etish sharoitida shaxsning faolligi va odatda jiddiy sabablar bo'lmagan sharoitda jinoyat sodir etish.²

Odatda bunday xususiyatlar ikki asosiy belgi: shaxsning kriminogen buzilish darajasi va bu buzilishning xususiyatidan kelib chiqib hisobga olinadi.

Kriminogen shaxs tiplari bilan bog'liq holda viktim xulq-atvor ham turlicha namoyon bo'ladi. Izchil kriminogen tipga mansub shaxslar ko'pincha xavfli vaziyatlarni o'zlari yuzaga keltiradi va jabrlanuvchiga aylanish ehtimolini oshiradi. Situativ kriminogen tip vakillari esa asosan muhit ta'sirida ehtiyotsizlik yoki noto'g'ri xatti-harakatlar tufayli jabrlanuvchiga aylanadi. Situativ tipda esa jabrlanuvchilik ko'proq tasodifiy vaziyatlar natijasida yuz beradi.

Viktim xulq-atvor shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhiti va aniq vaziyatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli jinoyatchilikka

² . Kriminologiya maxsus qism darslik. Niyozova. S.S. Toshkent. 2024

qarshi kurashishda nafaqat jinoyatchi shaxsini, balki potensial jabrlanuvchilarni ham o'rganish, ularning xulq-atvorini tahlil qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmagan shaxs mikromuhitining tavsifini, uning jinoyat sodir etishdan oldingi xulq-atvori haqidagi ma'lumotlarni, ongning mazmun tomoni xususiyatlarini hisobga oluvchi kompleks mezonga asoslanib, qasddan jinoyat sodir etuvchi o'smirlarning uch tipi: izchil kriminogen, situativ kriminogen va situativ tiplari qayd etilgan.

Izchil kriminogen tip. Ushbu tip vakillarining jinoiy xulq-atvori odatdagi xulq-atvor tarzidan kelib chiqadi va subyektning qarashlari, ijtimoiy mo'ljallari va moyilliklari bilan belgilanadi. Odatda mazkur shaxs jinoyat sodir etish vaziyatidan nafaqat foydalanadi, balki uni faol yaratadi. Ushbu tip vakillari zarur holda muayyan muhitni o'zlariga "moslashtirish"ga qodirlar. Ularning jinoiy xulq-atvori izchil kriminogenlik shakllangan bosqichdan boshlab nisbatan erkin xususiyat kasb etadi.

Vaziyatga bog'liq kriminogen tip. Ziddiyatli mikromuhitda shakllanadi va faoliyat olib boradi; jinoyat ko'p jihatdan uni sodir etishning ma'naviy va huquqiy nuqtayi nazardan salbiy holati bilan belgilanadi. Ayni holda shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shaxsni jinoyatga u qo'shilgan mikromuhit, uning oldingi turmush tarzi olib keladi.

Vaziyatga bog'liq tip. Mazkur shaxs ongi va xulq-atvorining, shuningdek, u qo'shilgan mikromuhitning axloqqa zid unsurlari ahamiyatsizdir. Jinoyat mazkur shaxs aybi bilan yuzaga kelmagan, uning uchun ma'lum darajada g'ayrioddiy va boshqa subyektlar bilan birgalikda axloq va huquq normalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatning hal qiluvchi ta'siri natijasida sodir etiladi³.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsni o'rganish uning jinoyat sodir etishida psixologik omillarning ta'siri kuchli hisoblanadi. Misol uchun o'ch olish, zo'rlik ishlatish, xulq-atvordagi o'zgarishlar (salbiy tomonga), stress

³ . Kriminologiya maxsus qism darslik. Soliyev N.S Toshkent. 2024

(ruhiy tushkunlik), aldash, qo'pollik, shafqatsizlik, ishonchsizlik va boshqalarning jinoyat sodir etishda muayyan o'ringa egadir. Shuningdek, ota-onalar migratsiyasining bolalar psixologik holatiga ta'siri katta hisoblanadi. Oiladagi vaziyatdan qat'i nazar, bolalarning aksariyati migratsiya paytida ota-onalarini sog'inadilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ota-onalarning migratsiyasi bolalarning emotsional farovonligiga eng jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi: otalar migratsiyasi bolalarning emotsional farovonligini eng past ko'rsatkichga olib tushadi: otasiz yashagan bolalarning aksariyati kayfiyatning tushishi va g'amginlik hissi vujudga keladi. Bundan tashqari, kam ta'minlangan oilalarda ota-onalarning safarda uzoq vaqt bo'lishlari ham bolalarning hissiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ota-onalarini qo'msab, tushkunlik hola tiga tushishi, o'z navbatida, ularning kayfiyatlari va fe'latvorlaridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi va bolalar psixologik farovonligining boshqa jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Voyaga yetmagan jinoyatchining xulq-atvorini o'rganishning psixologik jihatlarini bir qancha olimlar o'z ta'limotlarida individni jinoiy harakatga undovchi ehtiyojlar, qiziqishlar va atrof-muhit bilan individ o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan psixik zo'riqishlar, ijtimoiy muhitga, undagi voqea-hodisalarga, ijtimoiy tartib va qoidalarga shaxsning moslasha olmasligi voyaga yetmaanlarda jinoyatchilik xulqini keltirib chiqarishi mumkinligi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini ilgari suradilar.⁴

O'zgarlar mulkini talon-toroj qilish sohasidagi jinoyatchilikda jinoyatchi shaxsi bu o'zining g'ayriijtimoiy qarashlari, ijobiy ijtimoiy manfaatlarga salbiy munosabati oqibatida jinoyat sodir etgan, o'zining niyati yoki salbiy oqibatlarga erishishning ijtimoiy xavfli usulini tanlagan kishining shaxsidir.

O'zgarlar mulkini talon-toroj qilish sohasidagi jinoyatchilikda jinoyatchi shaxsining tuzilishi:
jinoyat-huquqiy tavsifi (xususiyatlari); ijtimoiy-demografik tavsif;
ma'naviy-ruhiy tavsifga ega bo'ladi.

⁴. Kriminologiya darslik. Ikromov. SH. T Toshkent. 2015

O'zgarlar mulkini talon-toroj qilish sohasidagi jinoyat subyekting shaxsi uch darajada: jinoyatchi shaxsi umumiy tushunchasi nuqtayi nazaridan har xii toifaga mansub jinoyatchilarning belgilarini aniqlash nuqtayi nazaridan va muayyan jinoyat sodir etgan shaxs (masalan, o'g'rilik sodir etuvchi shaxslar) darajasida o'rganilishi lozim.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni sodir etuvchi shaxs larning quyidagi tipologiyasi ajratilgan: 1) tamagir; 2) tamagir zo'ravon; 3) ashaddiy; 4) o'ta ashaddiy.

Tamagir tipiga sodir qilingan jinoyatlarda tamagirlik motivatsiyasi yaqqol namoyon bo'lishi xosdir. Bu tipga doir shaxslar bosqinchilikni tamagirlik niyatida sodir etadilar. Tamagir-zo'ravon tip uchun nafaqat bosqinchilik jinoyatlarini sodir etish, balki odam o'ldirish, sog'liqqa yoxud mulkka qarshi boshqa jinoyatlarni zo'rlik ishlatgan holda sodir qilishi xosdir (8,2 foiz). Bunda nomusga tegish, badanga og'ir, o'rtacha og'ir yoki yengil shikast yetkazish, bezorilik, talonchilik, o'g'rilik va bosqinchilik jinoyatlarining yig'indisi inobatga olingan.⁵

Xulosa qilib aytganda viktim xulq-atvor kriminologiyada muhim o'rin tutib, u shaxsning jinoyat jarayonidagi jabrlanuvchi sifatidagi o'rnini ifodalaydi. Jinoyat faqat jinoyatchining harakati natijasida emas, balki ayrim hollarda jabrlanuvchining o'z xulq-atvori, ijtimoiy muhit bilan munosabati va psixologik holati ta'sirida ham yuzaga keladi. Shu bois shaxsning viktim xususiyatlari uning individual belgilaridan tashqari, u yashayotgan muhit va mavjud vaziyat bilan uzviy bog'liqdir.

Voyaga yetmaganlar orasida viktim xulq-atvor ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki ularning shaxsiyati hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Oiladagi nosog'lom muhit, ota-onalar nazoratining sustligi, migratsiya tufayli emotsional yetishmovchilik, tengdoshlar ta'siri kabi omillar ularning ham jinoyatchi, ham jabrlanuvchi bo'lib qolish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, psixologik beqarorlik,

⁵. Kriminologiya darslik. Fozilov. I.Y. Toshkent. 2015

stress, tushkunlik, ishonchsizlik kabi holatlar shaxsni xavfli vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdurasulova. Q.R. Kriminologiya darslik. Toshkent. 2008 y
2. Niyozova. S.S. Kriminologiya maxsus qism darslik. Toshkent. 2024 y
3. Salayev N.S Kriminologiya maxsus qism darslik. Toshkent. 2024 y
4. Ikromov. SH. Kriminologiya darslik. Toshkent. 2015 y
5. Fozilov. I.Y. Kriminologiya darslik. Toshkent. 2015 y